

**O‘ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN LAW
REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.



12.00.09 – JINOYAT PROTSSESI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

125 **OMONOV ZAFARJON RAXMONALIYEVICH**

Tergov sudyasi: ishni sudga qadar yuritishda sud nazoratini takomillashtirish masalalari

136 **KURMICHKINA ALBINA RINAT QIZI**

O'zbekistonning 2026–2030-yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlik strategiyasi: yangi protsessual vositalar va huquqiy majburiyatlar

146 **SAIDOV BOBOQUL YORIQULOVICH**

Raqamli sohada sodir bo'layotgan o'g'rilik jinoyatlarini isbotlash, shaxsni identifikatsiya qilish va elektron dalillarni to'plashdagi muammolar

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

152 **ABDULLAYEVA SABOHAT ASATULLO QIZI**

Markazlashmagan kripto-birjalar (DEX) orqali pul yuvishga qarshi kurashish: xalqaro yondashuvlar va milliy huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

158 **TANGIRQULOV MUZAFFAR DONIYOR O'G'LI**

Suvga bo'lgan huquq inson huquqlari tizimida: nazariy-huquqiy va amaliy tahlil

HUQUQNI SOHALARARO TADQIQ ETISH

165 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**

O'zbek huquqshunoslik terminologiyasida ko'pma'nolilik va qarama-qarshilik

170 **FATTAXOVA AMINA RUSTAMOVNA**

Huquqshunoslarni kasbiy tayyorlashda narrativ yondashuv: badiiy matn imkoniyatlari

178 **MATENOV RASHID BEKIMBETOVICH**

Huquq tilining rivojlanishi: tildagi tabiiy o'zgarishlarning qonunchilikka ta'siri

183 **ZIYAMUXAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**

Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida huquqqa oid leksika bo'yicha mulohazalar hamda mo'jaz konkordans lug'at

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 11 **АЛИМОВ БОТУ БАБИРОВИЧ**
Конституционно-правовые основы взаимоотношений Президента и Правительства: зарубежный опыт и модель Узбекистана
- 19 **САИДАЗИМОВ ЮСУФ СОДИК УГЛИ, ЖАЛОЛОВА ДИЁРА ГАЙРАТ КИЗИ**
Анализ национального законодательства о порядке производства по административным жалобам в Республике Узбекистан
- 26 **НОРМУРАТОВ АКТАМ ТУЛАБОЙ УГЛИ, ЖУРАЕВА МУМТОЗМАХАЛБЕГИМ ЭЛМУРОДЖОН КИЗИ**
Действительность административных актов в Республике Узбекистан: анализ материально-правовых и процессуальных требований

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 32 **НАРЗИЕВ ОТАБЕК СЎДИЕВИЧ, МАМАТХАНОВ АСКАР МАХМУТОВИЧ**
Социальные инвестиции и облигации социального воздействия: правовые механизмы в Узбекистане
- 42 **ШАМШЕТОВ ШАРАФАТДИН САРСЕНОВИЧ**
Правовой статус микрофинансовых организаций как субъектов предпринимательской деятельности
- 52 **ДИЛБОБОВЕ НОЗИМБЕК ШАВКАТ УГЛИ**
Повышение роли местных инвесторов в национальной экономике: правовые инструменты и способы
- 59 **ХАЗРАТКУЛОВА СЕВИНЧБЕКА ШОДИЁР КИЗИ**
Обязательства FRAND в лицензировании SEP: глобальная судебная практика и правовой пробел Республики Узбекистан
- 66 **ТУРСУНОВ АБДУХАЛИЛ АБДУСАЛИМОВИЧ**
Правовое значение цифровой рекламы в процессе перехода экономики к технологической и инновационной модели роста
- 73 **УБАЙДУЛЛАЕВА ЗАРИФА МУХИДДИН КИЗИ**
Вопросы возврата товара продавцу в договорах электронной коммерции
- 80 **БОБОТУХТАЕВ СОХИБЖОН АБДУСАЛИМ УГЛИ**
Способы и механизмы защиты объектов промышленной собственности и тенденции их развития
- 87 **САМАНДАРОВА ФЕРУЗА БАХРОМЖОН КИЗИ**
Особенности внесения изменений в договоры государственных закупок

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

- 94 **АБДУЛЛАЕВА ДИЛФУЗА САИДАЗИМОВНА**
Запрет принудительного труда: международные стандарты и национальное законодательство

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

- 101 **МУХАММАДЖОНОВ АБРОРЖОН АКМАЛЖОН УГЛИ**
Вопросы внедрения цифровых технологий в деятельность органов прокуратуры

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 109 **УТАЕВ ХУСНИДДИН ХУРРАМОВИЧ**
Уголовно-правовая сущность и общественная опасность мошенничества в цифровой среде
- 116 **ЖУМАНИЕЗОВА ЗАРНИГОР МАХАММАДИ КИЗИ**
Взаимосвязь миграционных процессов и торговли людьми

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 11 **ALIMOV BOTU BABIROVICH**
Constitutional and legal foundations of the relationship between the President and the Government: experience of foreign countries and the Uzbek model
- 19 **SAIDAZIMOV YUSUF SODIQ UGLI, JALOLOVA DIYORA GAYRAT KIZI**
Analysis of national legislation on the procedure for administrative appeals in the Republic of Uzbekistan
- 26 **NORMURATOV AKTAM TULABOY UGLI, JURAEVA MUMTOZMAHALBEGIM ELMURODJON KIZI**
Authenticity of administrative documents in the Republic of Uzbekistan: analysis of material-legal and procedural requirements

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 32 **NARZIEV OTABEK SADIYEVICH, MAMATKHANOV ASKAR MAKHMUTOVICH**
Social investment and social impact obligations: legal mechanisms in Uzbekistan
- 42 **SHAMSHETOV SHARAFATDIN SARSENOVICH**
The legal status of microfinance organizations as subjects of entrepreneurial activity
- 52 **DILBOBOEV NOZIMBEK SHAVKAT UGLI**
Increasing the role of local investors in the national economy: legal instruments and methods
- 59 **HAZRATQULOVA SEVINCHBEKA SHODIYOR KIZI**
Franchise obligations in SEP licensing: global judicial practice and the legal gap in the Republic of Uzbekistan
- 66 **TURSUNOV ABDUKHALIL ABDUSALIMOVICH**
The legal importance of digital advertising in the transition of the economy to a technological and innovative growth model
- 72 **UBAYDULLAEVA ZARIFA MUKHIDDIN KIZI**
Issues of return of goods to the seller in electronic commerce contracts
- 80 **BOBOTUKHTAEV SOHIBJON ABDUSALIM UGLI**
Methods and mechanisms for the protection of industrial property objects and their development trends
- 87 **SAMANDAROVA FERUZA BAKHROMJON KIZI**
Specific features of amending public procurement contracts

12.00.05 – LABOR LAW. SOCIAL SECURITY LAW

- 94 **ABDULLAEVA DILFUZA SAIDAZIMOVNA**
Prohibition of forced labour: international standards and national legislation

12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

- 101 **MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON UGLI**
Issues of implementing digital technologies in the activities of prosecutorial offices

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 109 **UTAEV KHUSNIDDIN KHURRAMOVICH**
Criminal-legal nature and social danger of fraud in the digital environment
- 116 **JUMANIYOZOVA ZARNIGOR MAKHAMMADI KIZI**
The relationship between migration and human trafficking

B.A. Mo‘minovning yuqoridagi fikricha, sud nazorati shaxsning sud himoyasida bo‘lish huquqini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, vakolatli shaxslarning iltimosnomalari va manfaatdor shaxslarning shikoyatlarini sud tomonidan ko‘rib chiqilishi orqali qonun bilan belgilangan protsessual shaklda amalga oshiriladigan faoliyatdir. Unda sud nazoratini harakatga keltiruvchi mexanizmlarga (shikoyat va iltimosnomalar orqali ish yuritishga) aniq urg‘u berilgan. Garchi bu formal-yuridik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, bu yondashuv sud nazoratining eng muhim g‘oyalardan biri – jinoyat protsessida davlat apparati va shaxs o‘rtasidagi “kuchlar muvozanati”ni o‘rnatishdek funksiyani biroz soyada qoldiradi. Tortishuvchanlik prinsipi sudga qadar ish yuritishda amalda ishlashi uchun, himoya tarafi ham dalillar to‘plash va qabul qilinayotgan protsessual qarorlarga real ta‘sir o‘tkazishda teng imkoniyatga ega bo‘lishi shart. Shuning uchun, B.A. Mo‘minovning yondashuvini e‘tirof etgan holda, uni to‘ldirib shuni ta‘kidlash kerakki, sud nazorati shunchaki iltimosnoma yoki shikoyatlarga yuridik javob berish formati emas, balki ayblov tarafi va shaxsning manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatni xolis hal qiluvchi xalqaro “Habeas corpus” prinsipini amaliyotga tatbiq etuvchi instansiyadir.

Sud nazorati odil sudlovdan maqsadi, predmeti va huquqiy tartibga solish usuli bilan keskin farq qiladi. Birinchidan, maqsad va predmetdagi farqlar bo‘lib, odil sudlov jarayonida davlat va shaxs o‘rtasidagi jinoyat-huquqiy nizo hal qilinib, shaxsning aybli yoki aybsizligi aniqlansa hamda unga nisbatan adolatli jazo tayinlash yoki oqlash masalasi uzil-kesil hal etilsa, sud nazoratida shaxsning ayblilik masalasi umuman muhokama qilinmaydi. Sud nazoratida faqatgina vakolatli organlar (surishtiruv, tergov organlari va prokuror) tomonidan insonning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq protsessual faoliyatning qonuniyligi va asosiligi tekshiriladi. Ya‘ni odil sudlov moddiy-huquqiy masalani (jinoyat va jazoni) hal qilsa, sud nazorati protsessual-huquqiy nizo (masalan, qamoqqa olishning asosiligi yoki tintuvning qonuniyligi)ni hal qiladi. Ikkinchidan, jinoyat protsessi bosqichidagi farqlar bo‘lib, bunda odil sudlov asosan jinoyat ishini birinchi instansiya sudida mazmunan ko‘rish va hukm chiqarish orqali amalga oshadi. Sud nazorati esa jinoyat ishining dastlabki (sudga qadar) bosqichlarida faoliyat ko‘rsatib, hali ayblov masalasi sud muhokamasiga chiqarilmasdan turib, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Sud nazorati odil sudlovga qadar qonunlarni qo‘llashdagi xatolarning oldini olish va tergov organlari tomonidan shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash bilan bog‘liq qarorlarning asosiligini tekshirish vazifasini bajaradi.

Sud nazoratining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘z tashabbusi bilan emas, balki faqat manfaatdor subyektlarning (tergovchi, prokurorning iltimosnomasi, advokat yoki fuqaroning shikoyati) murojaati asosidagina harakatga keladi (dispozitivlik elementi). O.V. Ximicheva sud nazoratining predmeti va doirasidan kelib chiqib, uning ikki asosiy shaklini ajratadi (Ximicheva, 2004): 1) ogohlantiruvchi (preventiv) – tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishga rozilik (sanksiya) berish; 2) huquqni tiklovchi (keyingi nazorat) – amalga oshirilgan harakatlar yoki qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va asosiligini tekshirish va shikoyatlarni ko‘rib chiqish. O.V. Ximichevaning sud nazoratini preventiv va huquqni tiklovchi ikki shaklga ajratish konsepsiyasi ilmiy jihatdan asosli bo‘lsa-da, O‘zbekistonda joriy etilgan tergov sudyasi instituti ushbu ikki shakllik tizimiga to‘liq sig‘maydi. Xususan, tergov sudyasiga berilgan dalillarni deponentlash vakolati na preventiv, na huquqni tiklovchi nazorat doirasiga kirmaydi – bu “dalillarni oldindan mustahkamlash nazorati” sifatida alohida, uchinchi mustaqil shakl sifatida e‘tirof etilishi lozim. Bundan tashqari, O.V. Ximicheva huquqni tiklovchi nazorat doirasida shikoyatlar asosida dalillarni ishdan chiqarishni nazarda tutgan bo‘lsa, milliy qonunchiligimizda bu vakolat tergov sudyasida emas, ishni mazmunan ko‘ruvchi umumiy sudga qolgan. Demak, tergov sudyasining huquqni tiklovchi nazorati cheklangan shaklda namoyon bo‘ladi.

Ishni sudga qadar yuritishda sud nazoratining yana bir o‘ziga xos fundamental xususiyati shundaki, u an‘anaviy prokuror nazoratidan konseptual jihatdan farq qiladi va uning o‘rnini bosmaydi, balki uni to‘ldiradi. MDH davlatlari va milliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, dastlabki tergovda prokuror ham jinoiy ta‘qibni (ayblovni) amalga oshiruvchi, ham qonuniylik ustidan nazorat qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa prokurorda “ayblovga moyillik” psixologik holatini shakllantirib, uning xolis

Ushbu Qonun asosida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 31¹-modda (Tergov sudyasining vakolatlari) bilan to'ldirildi. Yangi normaga ko'ra tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi. E'tiborli jihati shundaki, tergov sudyasi jinoyat ishini mazmunan ko'rib chiqmaydi, u aybdorni jazolash yoki oqlash masalasini hal etmaydi. Uning asosiy va konstitutsiyaviy maqsadi tergov va surishtiruv organlari tomonidan insonning tabiiy va daxlsiz huquqlariga (erkinlik, uy-joy daxlsizligi, yozishmalar siri, mulk huquqi) asossiz aralashuvning oldini olish hamda jinoyat protsessining ushbu bosqichida taraflarning tengligini ta'minlashdan iborat. Bu esa uni ayblov va himoya tomonlari o'rtasidagi chinakam mustaqil va xolis arbitr (hakam)ga aylantiradi.

Tergov sudyasining vakolatlari JPKning 31¹-moddasi bilan keskin kengaytirilib, ushbu institut faqat qamoqqa olish yoki uy qamog'iga sanksiya berish bilan cheklanib qolmadi. Shaxsning harakatlanish erkinligi, mehnat qilish huquqi va sog'lig'iga daxldor bo'lgan quyidagi eng muhim protsessual majburlov choralarini qo'llash aynan tergov sudyasining mutlaq vakolatiga o'tkazildi:

- ushlab turish muddatini 48 soatgacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;
- qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish;
- pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish;
- ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish;
- shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish va tibbiy muassasada bo'lish muddatini uzaytirish.

Inson huquqlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, shaxsni lavozimdan chetlashtirish uning mehnat qilish va daromad olish huquqini cheklaydi, pasport amal qilishini to'xtatish esa erkin harakatlanish konstitutsiyaviy huquqiga daxl qiladi. Ilgari ushbu harakatlarning ayrimlari faqat prokuror sanksiyasi bilan yoki tergovchining o'z qarori asosida amalga oshirilgan bo'lsa, endilikda davlat majburlovining bunday shakllari faqat sud (tergov sudyasi) tomonidan, taraflar ishtirokida tortishuvchanlik muhitida ko'rib chiqilishi – "Habeas korpus" institutining O'zbekiston jinoyat protsessida to'laqonli tatbiq etilganligini ko'rsatadi.

2025-yil islohotlarining eng e'tiborli o'zgarishlaridan biri - bu shaxsning shaxsiy hayoti, uy-joy daxlsizligi va mulk huquqiga bevosita tahdid solishi mumkin bo'lgan tergov harakatlarini o'tkazishga ruxsat berish (sanksiyalash) vakolatining tergov sudyasiga o'tkazilishi bo'ldi. JPKga kiritilgan qo'shimchalarga muvofiq tergov sudyasining vakolatlariga quyidagi tergov harakatlariga ruxsat berish kiritildi:

1. Tintuv o'tkazish (JPKning 158¹, 158²-moddalari). Uy-joy daxlsizligi Konstitutsiyaning 27-moddasi bilan kafolatlangan. Tergov organining har qanday shubha asosida fuqaroning uyiga bostirib kirishi, uning xususiy hayotiga oid sirlarini ochib tashlashi mumkin. Yangi tartibga ko'ra prokuror yoki tergovchi tintuv o'tkazishning uzrli va qonuniy asoslarini tergov sudyasi oldida isbotlab berishi shart (Republic of Uzbekistan, 1995).

2. Telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish (JPKning 169¹, 169²-moddalari). Yozishmalar va telefon so'zlashuvlari siri insonning eng muhim huquqlaridandir. Raqamli texnologiyalar asrida elektron ma'lumotlarni olishga sanksiya berishning sudga o'tkazilishi fuqarolarni davlat organlarining asossiz kuzatuvlaridan himoya qiladi (Republic of Uzbekistan, 1995).

3. Mol-mulkni xatlash va pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash. Xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash maqsadida tergovchining mulkka band solish qarori ham mustaqil sud nazoratidan o'tishi qat'iy belgilandi.

4. Murdani eksqumatsiya qilish. Marhumning xotirasi va yaqin qarindoshlarining ruhiy holatiga daxl qiluvchi ushbu harakat ham sudning qat'iy nazoratiga olindi.

Mazkur tergov harakatlari bo'yicha tergov sudyasi ayblov tomoni (tergovchi va prokuror) tomonidan taqdim etilgan materiallarni xolisona o'rganib chiqadi. Sudya mazkur harakatlarni o'tkazishni rad etish to'g'risida ajrim chiqarsa, bu ajrim qat'iy va asoslantirilgan bo'lishi talab etiladi. Agar tergov organlari kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda (masalan, jinoyat izi yo'qolishi xavfi

bo'lganda) sudning ruxsatisiz telefon so'zlashuvlarini eshitishni yoki tintuvni boshlab yuborsa, ular 24 soat ichida tergov sudyasini xabardor qilishi va sudya ushbu harakatning qonuniyligini baholashi (keyingi sud nazorati) imperativ norma sifatida mustahkamlandi. Agar tergov sudyasi ushbu harakatni noqonuniy deb topsa, olingan barcha ma'lumotlar nomaqbul dalil deb topiladi va ushbu ma'lumotlar ishni mazmunan ko'ruvchi sud tomonidan jinoyat ishidan chiqarilib tashlanadi. Bu esa tergov organlarini faqat va faqat qonun doirasida ishlashga majbur qiluvchi juda kuchli protsessual filtr hisoblanadi.

Ishni sudga qadar yuritishda tergov sudyasining rolini oshiruvchi eng muhim va konseptual yangiliklardan biri bu dalillarni to'plash va mustahkamlash jarayoniga sudning bevosita, xolis aralashuvidir. Xususan, JPKning 121¹, 121², 121³-moddalar bilan jinoyat protsessiga guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatuvlarini deponentlash (oldindan mustahkamlash) instituti kiritildi.

Amaliyotda shunday holatlar ko'p uchraydiki, muhim guvoh yoki jabrlanuvchi og'ir kasallikka chalingan bo'lishi, uzoq muddatga xorijga chiqib ketayotgan bo'lishi yoki ularga nisbatan jinoyatchilar tomonidan kuchli ruhiy-jismoniy tahdid (bosim) o'tkazilish xavfi mavjud bo'lishi mumkin. Agar ushbu shaxslarning ko'rsatuvlari faqat tergovchining xonasida, oddiy so'roq bayonnomasi orqali olinsa, keyinchalik sud muhokamasi jarayonida (oradan oylar o'tgach) ushbu shaxslar sudga kela olmasligi yoki qo'rquv ostida o'z ko'rsatuvlaridan tonishi yoki ularni o'zgartirishi mumkin. Natijada odil sudlovni amalga oshirish va jinoyatni fosh etish imkonsiz bo'lib qoladi.

Shu muammoni hal etish maqsadida, endilikda prokuror (yoki manfaatdor taraflar) tergov sudyasiga iltimosnoma kiritib, guvoh yoki jabrlanuvchini sudga qadar bosqichning o'zidayoq, sud majlisi shaklida, himoyachi (advokat) va ayblovchining ishtirokida, ochiq va tortishuvchanlik sharoitida so'roq qilishni talab qilishi mumkin. Tergov sudyasi tomonidan so'roq qilinib, rasmiylashtirilgan (deponentlangan) bu ko'rsatuvlar oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va keyinchalik ishni mazmunan ko'ruvchi sud tomonidan hech qanday shubhasiz, to'laqonli maqbul dalil sifatida qabul qilinadi. Bu institutning joriy etilishi tergov sudyasini nafaqat nazoratchi, balki jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni o'rnatishda dalillarning yo'qolib ketmasligini va tomonlar (ayniqsa himoyachi)ning dalillarni shakllantirishda teng ishtirok etishini ta'minlovchi kafilga aylantirdi.

Qonunchilikdagi yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, tergov sudyasining vakolatlari faqat jinoyat-protsessual soha bilan cheklanmadi. O'RQ-1022-sonli Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib kelinayotgan barcha ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish ham aynan tergov sudyasi vakolatiga o'tkazildi (Republic of Uzbekistan, 2025). Odil sudlovni amalga oshiruvchi (jinoyat ishlarini mohiyatan ko'ruvchi) sudyalarning ma'muriy ishlar va tergov sanksiyalari bilan haddan tashqari band bo'lishi ularning asosiy jinoyat ishlariga yetarli vaqt ajrata olmasligiga va sud qarorlarining sifati pasayishiga olib kelar edi. Ushbu funksiyalarning tergov sudyasiga o'tkazilishi natijasida, odil sudlovni amalga oshiruvchi sudya faqat jinoyat ishini mazmunan ko'rishga diqqatini qaratadi. Tergov sudyasi esa doimiy ravishda protsessual majburlov choralari, tergov sanksiyalari va ma'muriy javobgarlik masalalari bilan ishlaydigan, yurisdiksiyaviy nazoratga ixtisoslashgan yuksak malakali protsessual figuraga aylanadi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar, jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 9-moddasida qamoqqa olingan yoki ushlab turilgan har bir shaxsning ishi zudlik bilan sudya yoki sud hokimiyati vakili tomonidan ko'rib chiqilishi (Habeas Corpus) qat'iy belgilangan. Anglo-sakson huquq tizimida Habeas Corpus protsedurasi asosan sudning ushlab turishning qonuniyligini tekshirishi va shaxsni darhol ozod qilishi orqali namoyon bo'ladi.

Kontinental Yevropa (Fransiya, Germaniya) va qator MDH davlatlarida (Qozog'iston, Ukraina, Latviya) esa bu funksiyani maxsus ixtisoslashgan tergov sudyalari amalga oshiradi. Masalan, Qozog'iston Respublikasida 2015-yildan beri tergov sudyasi nafaqat ehtiyot choralari qo'llaydi, balki dalillarni to'plashda himoyachining iltimosnomalarini qanoatlantirish (masalan, ekspertiza tayinlash) va ko'rsatuvlarni deponentlash vakolatlariga ega. O'zbekistonda tergov sudyasi lavozimining joriy

etilishi va uning vakolatlariga ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlash funksiyasining berilishi xalqaro ilg'or standartlarga va Qozog'iston hamda Yevropaning ijobiy tajribasiga to'la mos keladi.

Jinoyat-protsessual munosabatlarda sud nazoratining odil sudlovdan mustaqil bo'lgan, alohida konstitutsiyaviy funktsiya sifatida e'tirof etilishi hamda milliy qonunchilikka tergov sudyasi institutining joriy qilinishi sud-huquq tizimidagi konseptual burilish bo'ldi. Nazariy doktrinalarda ilgari surilgan ushbu yondashuvning, ya'ni sud nazoratining mustaqil va xolis institutga aylanganligining amaliy samaradorligini quyidagi statistik ko'rsatkichlar yaqqol tasdiqlamoqda.

Xususan, tergov sudyalari tomonidan 2025-yil davomida jami 24 721 ta shaxsga nisbatan qamoq ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi iltimosnomalar ko'rib chiqilgan. Mazkur iltimosnomalardan 1261 tasi rad etilgan bo'lib, bu jami kiritilgan iltimosnomalarning 5,1 %ini tashkil etgan. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, agar 2024-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan qamoqqa olishga ruxsat berish bilan bog'liq ko'rilgan materiallar statistikasiga e'tibor qaratsak, jami 25 569 ta iltimosnoma ko'rib, shundan 593 tasi rad etilgan edi. Ya'ni bu davrda shaxsni qamoqqa olishni rad etish ko'rsatkichi bor-yo'g'i 2,3 %ni tashkil qilgan.

Mazkur statistik ma'lumotlar va rad etish ko'rsatkichining o'tgan yilga nisbatan (2,3 %dan 5,1 %gacha) sezilarli oshganligi aynan tergov sudyalarining shaxsga nisbatan qamoq ehtiyot chorasini qo'llashdagi mas'uliyati keskin ortganini ko'rsatmoqda. Jinoyat ishini mohiyatan ko'rib chiqish (odil sudlov) vazifasidan ozod qilingan tergov sudyasi tergov organlarining vajlariga tanqidiy hamda mutlaqo xolis yondashmoqda. Natijada dastlabki tergovda qamoqqa olishni so'rab asossiz murojaat qilish amaliyotiga chek qo'yilib, sud nazorati formal tasdiqlovchi bosqichdan real va ta'sirchan huquqni muhofaza qiluvchi mexanizmga aylandi.

So'nggi islohotlarga qaramay, ilmiy tahlillar jinoyat-protsessual qonunchilikda hanuzgacha ayrim bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Birinchidan, protsessual majburlovning eng dastlabki bosqichi bo'lgan shaxsni ushlab turish qonuniyligini bevosita sud tomonidan tekshirish mexanizmi yetarli darajada ochilmagan. JPKning 243-moddasiga binoan qamoqqa olish masalasini ko'rishda, sud faqat kelgusida shaxsni qamoqda saqlash zaruriyatini muhokama qiladi, ammo shaxsni dastlabki ushlab turish jarayoni qonuniy bo'lganmi yoki yo'qmi degan masalaga ko'p hollarda baho berilmaydi. Agar ushlab turishning o'zi noqonuniy bo'lsa, iltimosnomani rad etish uchun bu mustaqil asos bo'lishi qonunchilikda imperativ tarzda aks etmagan. Ikkinchidan, tortishuvchanlik prinsipining sudga qadar bosqichda to'liq ishlamasligi. JPKda himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash huquqiga ega bo'lsa-da, uning masalan, ekspertiza tayinlash yoki muayyan hujjatlarni talab qilib olish haqidagi iltimosnomasi tergovchi tomonidan asossiz rad etilsa, himoyachi bevosita tergov sudyasiga murojaat qilib, ushbu protsessual harakatni majburiy o'tkazish bo'yicha qaror olish mexanizmiga ega emas. Uchinchidan, tergov sudyasining kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda o'tkazilgan tergov harakatlarini noqonuniy deb topgan taqdirda, ushbu harakat orqali olingan dalillarni darhol nomaqbul dalil deb topish vakolati protsessual qonunchilikda to'liq mexanizm sifatida mustahkamlanmagan.

Tergov sudyasi institutining joriy qilinishi O'zbekiston jinoyat sudlov ishlarini yuritish tarixida inson huquqlarini himoya qilishda yangi davrni boshlab bergani ayni haqiqat. Odil sudlovni ta'minlash va tergov sudyasining protsessual maqomini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy takliflar ilgari suriladi:

1. Jinoyat-protsessual kodeksiga himoya tomonining protsessual tengligini kafolatlovchi normani kiritish. Xususan, himoyachining jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni talab qilib olish yoki ekspertiza tayinlash haqidagi iltimosnomasi tergovchi yoki prokuror tomonidan rad etilganda (yoki belgilangan muddatda ko'rib chiqilmaganda), himoyachiga bevosita tergov sudyasiga murojaat qilish huquqini berish lozim. Bu orqali dalillar to'plashda chinakam tortishuvchanlik muhiti yaratiladi.

2. JPKning qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash tartibini belgilovchi moddalariga sudning dastlabki ushlab turish qonuniyligi va asosligini majburiy tekshirishi shartligi haqidagi imperativ normani kiritish. Agar tergov sudyasi shaxsni ushlab turish qonunga xilof ravishda amalga oshirilgan deb topsa, iltimosnomani qanoatlantirishni rad etishi va shaxsni darhol sud zalidan ozod qilishi kerak (to'laqonli "Habeas korpus" standarti).

President of the Republic of Uzbekistan. (2024, June 10). *Decree "On measures to further strengthen guarantees of reliable protection of individual rights and freedoms in operational search and investigative activities"* (No. DP-89). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-6964387>

Republic of Uzbekistan. (1995). *Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/111460>

Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6445145>

Republic of Uzbekistan. (2025, January 28). *Law "On amendments and additions to certain legislative acts of the Republic of Uzbekistan aimed at further strengthening the guarantees of reliable protection of individual rights and freedoms"* (No. LRU-1022). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/7347837>

United Nations. (1966, December 16). *International Covenant on Civil and Political Rights*. Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.